

SURUNKALI GEPATIT KASALLIGI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KASALLIKKA QARSHI KURASHISH CHORA TADBIRLARI.

Esonturdiyeva M.Y.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17879571>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda juda ko'p uchrayotgan kasalliklardan biri bo'lgan surunkali gepatit haqida so'z yuritiladi. Gepatit dunyoda eng ko'p odamlar vafot etadigan yuqumli kasalliklar orasida ikkinchi o'rinda turadi: u yiliga 1,3 million insonning o'limiga sabab bo'lmoqda - bu yuqumli kasalliklar orasida o'limning asosiy sababi bo'lgan sil kasalligi bilan bir xil. Hozirgi kunda aynan virusli gepatitning o'zi bilan har kuni 3500 nafar odamlar halok bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: O'tkir gepatit, surunkali gepatit, virusli gepatit, A persistik, aktiv, xolestatik, bilirubin, sirroz, surunkali xoletsistit, Botkin kasali.

Gepatit (yun. hepar; heptos - jigar) - jigar yallig'lanishi bilan kechadigan kasalliklar guruhi bo'lib bularga: Infeksion (virusli gepatit A, V, C, E, D) yoki infeksiyasiz gepatit (ovqatdan zaharlanish) hamda birlamchi va ikkilamchi infeksiion gepatitlarni kiritishimiz mumkin. Gepatit brutsellyoz, bezgak kasalliklar, shuningdek, surunkali me'da ichak kasalliklari bilan yondosh tarzda kuzatiladi. Gepatit kasalligi bemorlarda o'tkir va surunkali holatlarda uchraydi.

Jigarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar:

Surunkali gepatitning belgilari uch xil tarzda namoyon bo'ladi. 1) persistik, 2) aktiv, 3) xolestatik. Kasallikning persistik holatdagi belgisi ancha yengil hisoblanib, bemorlar o'ng qovurg'asi ostida kuchsiz og'riq bo'lishidan, darmonsizlanishidan, ish qobiliyati pasayishidan shikoyat qilishadi. Tekshirilganda jigarning hamma chegaralari pastga 3-4 sm gacha siljiganligi aniqlanib, paypaslanganda ozgina og'riq bo'ladi va qattiqlashadi. Laboratoriyada qonni tekshirganda oqsilning umumiy miqdori ko'payib, albuminning kamayganligi va gamma-globulinning ko'payganligi aniqlanadi. Boshqa analizlar deyarli o'zgarmaydi. Surunkali aktiv gepatit xastalikning og'ir turi bo'lib, bemorlar qornining o'ng tomoni og'rishidan, harorati ko'tarilishidan, ko'ngil aynib, safro qusishidan, og'zi qurishidan, quvvatsizligidan, ishtahasi yo'qoligidan shikoyat qiladilar. Radiologik usullar bilan tekshirilganda, jigarning ishlash qobiliyati pasayib, har taraflarga qarab kengayganligi aniqlanadi. Kasallik keyinchalik sirrozga aylanadi, vaholanki, persistik holatni o'z vaqtida va to'g'ri davolansa butunlay tuzalishi mumkin. Surunkali xolestatik gepatit o't pufagi yallig'lanishi, jigar o't yo'llarida va o't pufagida tosh bo'lishi natijasida kelib

chiqadi. Unda og'riq bilan birga badan sarg'ayishi, qichishi va haroratning ko'tarilishi kabi holatlar sodir bo'ladi. Jigar 4-5 sm gacha pastga tushib, qattiqlashadi. Qonda bilirubin ko'payib, siydikda urobilin paydo bo'ladi. Bu kasallik keyinchalik biliar sirroziga aylanadi. Surunkali gepatitni avvalo uchala turini bir-biridan ajrata bilish lozim. Undan keyin ularni jigar sirrozidan, surunkali xoletsistitdan va jigar rakidan farqlash zarur. Ba'zi holatlarda o'tkir gepatit 2-3 oyga cho'zilib, surunkali gepatetga aylanish holatlari yuzaga keladi.

Surunkali gepatit rivojlanishi:

Jigar hujayralarida bu kasallikning paydo bo'lishiga asosiy sabab oldinroq sariq kasali (Botkin kasali) bilan ogrigan bolishidir, ayniqsa bu yuqumli kasallikning og'ir formasi bo'lsa. Bundan tashqari spirtli ichimliklarni uzoq vaqt, ko'p miqdorda iste'mol qilish, har xil zararli moddalar ta'siri natijasida ham ushbu kasallik kelib chiqadi. Oshqozon, ichak, o't pufagi va oshqozon osti bezining surunkali kasalliklari ham sabab bo'lishi mumkin. Qolaversa, ayrim dori-darmonlarni qabul qilish ushbu kasallikning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Masalan: tetratsiklinni o'z ichiga olgan antibiotiklar, giyohvand moddalar, silga qarshi buyurilgan dorilar va h.k.

Kasallikning rivojlanishida organizm himoya kuchini kamayishi, viruslarning qon orqali jigarga kelib, uning ishining buzilishiga olib keladi va keyinchalik o'tning yigilib qolishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonlar natijasida jigarda qon yig'ilib, jigar hujayralarining buzilishiga olib keladi. Bulardan tashqari gumoral, immun va autoimmun hodisalarning ahamiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surunkali gepatitning profilaktikasi:

Jigar salomatligini saqlash uchun avvalo virusli gepatitning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va unga yaxshi davo qilishdan iborat. O'tkir gepatit bilan og'riqan bemorlar dispanser nazoratiga olinishi kerak. Kasallikning birinchi belgilaridan ogoh bo'lish. Surunkali gepatitlar profilaktikasining ikkinchi muhim vazifasi ularning paydo bo'lish sabablarini bartaraf etishdir. Ichkilik ichish, har xil zaharli moddalarga yaqin yurishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Surunkali gepatit bilan og'riqan bemorlarning barchasi dispanser kuzatuvida bo'lishi kerak.

Xulosa: Insonlarning salomatligi uchun katta xavf tug'dirayotgan bu kasallikning oldini olish zaruriy tushuntirish ishlari amalga oshirilishi lozim. Bu kasallikning davolash choralari aniq va to'g'ri tartibda borilishi juda ham muhim, aks holda bemorlarda bu kasallik bilan bog'liq asoratlar kelib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A. Sobirova, N.M. Yuldashev "Biokimyo".

- 2.<https://biotus.uz/uz/bolezni1/patologija-organov-pischevarenija/hronicheskiy-gepatit.html>
- 3.<https://avitsenna.uz/surunkali-gepatit>
- 4.https://www.who.int/health-topics/hepatitis#tab=tab_1
- 5.<https://www.who.int/teams/global-hiv-hepatitis-and-stis-programmes/hepatitis/overview>
6. Seeff L.B., Everson G.T., Morgan T.R., Curto T.M., Lee W.M., Ghany M.G., Shiffman M.L., Fontana R.J., Di Bisceglie A.M. and Bonkovsky H.L., 2010. Complication rate of percutaneous liver biopsies among persons with advanced chronic liver disease in the
7. IOSR Journal of Nursing and Health Science (IOSR-JNHS)
e-ISSN: 2320-1959.p- ISSN: 2320-1940 Volume 6, Issue 5 Ver. I. (Sep. -Oct.2017),
PP 41-45 www.iosrjournals.org

